



## AHMED ARABI'S ROLE IN THE EGYPTIAN NATIONAL LIBERATION MOVEMENT

**Khimmat Khusanov**

*Master's student*

*Samarkand State University*

*Samarkand, Uzbekistan*

*E-mail: [svetsovxiimmat@gmail.com](mailto:svetsovxiimmat@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Khadiv, Ahmad Arabi, Hizb-ul-Watan, Cairo, Alexandria, Pasha Tawfiq, Suez Canal, Ottoman Empire, England, Egypt, parliament, France.

**Received:** 27.11.24

**Accepted:** 29.11.24

**Published:** 01.12.24

**Abstract:** this article highlights the measures taken by Ahmad Arabi, considered one of the leaders of the Egyptian national-liberation movement against foreign colonists and the oppression of the Ottoman Turks, to preserve the country, change the political system in the state and democratize governance. Also in this scientific work, the details of the actions of the resistance of the Egyptian people against the colonists, the work carried out in the way of ensuring the defense are covered in detail.

## AHMAD ARABIYNING MISR MILLIY - OZODLIK HARAKATIDAGI ROLI

**Ximmat Xusanov**

*Magistratura talabasi*

*Samarqand Davlat Universiteti*

*Samarqand, O'zbekiston*

*E-mail: [xusanovxiimmat@gmail.com](mailto:xusanovxiimmat@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Xadiv, Ahmad Arabiy, Hizb-ul-vatan, Qohira, Aleksandriya, posho Tawfiq, Suvaysh kanali, Usmoniyalar imperiyasi, Angliya, Misr, parlament, Fransiya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet el mustamlakachilariga va Usmonli turklar zulmiga qarshi Misr milliy-ozodlik harakatining yetakchilaridan biri hisoblanmish Ahmad Arabiyning mamlakatni saqlab qolish, davlatdagi siyosiy tizimni o'zgartirish hamda boshqaruvni demokratlashtirish yo'lida amalga oshirgan chora-tadbirlari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ushu ilmiy ishda Misr xalqining mustamlakachilariga qarshi olib borgan qarshilik harakatlari, mudofaani

## РОЛЬ АХМЕДА АРАБИ В ЕГИПЕТСКОМ НАЦИОНАЛЬНО- ОСВОБОДИТЕЛЬНОМ ДВИЖЕНИИ

**Химмат Хусанов**

*студент магистратуры*

*Самаркандинский государственный университет*

*Самарканд, Узбекистан*

*E-mail: svetsovximmat@gmail.com*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Хадив, Ахмад Араб, Хизб-уль-Ватан, Каир, Александрия, паша Тауфик, Суэцкий канал, Османская империя, Англия, Египет, парламент, Франция.

**Аннотация:** в данной статье освещаются меры, предпринятые Ахмадом Араби, считающимся одним из лидеров египетского национально-освободительного движения против иностранных колонистов и гнета турок-османов, для сохранения страны, изменения политической системы в государстве и демократизации управления. Также в этом научном труде подробно освещаются детали действий сопротивления египетского народа против колонистов, работы, проводимые на пути обеспечения обороны.

XIX asr so'nggi choragida Usmoniyalar qo'l ostida bo'lgan Misr xadivligida mavjud Usmoniyalar zulmi tobora kuchayib bordi. Ayni shu vaqtda, 1875-yil, noyabr oyida Usmoniyalar imperiyasining moliyaviy bankrotligi tufayli Misr qog'ozlarining narxi pasayib ketgan edi. Buni kuzatib turgan Angliya hukumati mazkur Misrning og'ir vaziyatidan foydalaniib shu yili xedivdan "Suvaysh kanali kompaniyasi" aksiyalarining katta paketini arzon garovga sotib olgan edi va kanalning egasi bo'lib olgan edi. Lekin bu narsa Misr ahvolini yaxshilamagan edi.

Angliyaning Qohiraga jo'natgan ekspertlar guruhi vakillari Misrning moliyaviy ahvoli og'ir ekanligi borasida ma'ruza tayyorlab, mamlakat boshqaruvini o'z qo'llariga olish taklifini berdilar. Angliya va Misr orasidagi uzoq bahslardan keyin Misr qarzi bo'yicha komissiya tuzilib, qarzlarni qaytarish ushbu komissiya zimmasiga tushdi. O'z navbatida, Misr iqtisodiy nazorati butkul chet el nazorati ostiga o'tdi. Shunday qilib, Xadivlar ingliz hukumatiga yon berdi. Natijada, davlat ishlari inglizlar va fransuzlar qo'liga o'tdi va ularning hukumat boshqaruvida ta'siri oshib ketdi. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar harbiylar va mahalliy aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Jumladan, ular soliq tizimini o'z manfaatlariga moslab talqin qildilar hamda qurolli kuchlar tarkibidagi o'zlariga qarshi bo'lgan guruhlarni xizmat vazifasida ozod qildi. Bularning barchasi qurolli qarshilik harakatiga olib keldi. Ular qo'g'irchoq hukmdordan mavjud vaziyatni o'zgartirishni talab qildilar. Ularning talabi bajarildi. Biroq, chet elliklarning ta'siri ostida turk

sultonni Misr hukmdori Ismoilni vazifasidan chetlatdi va uning o‘rniga Tavfiqni tayinladi. Yangi posho esa chet el hukumatining buyruqlarini bajarib, moliya ustidan nazoratni yana ular qo‘lida bo‘lishini ta’minladi.

Bora-bora milliy g‘ururi toptalayotgan mahalliy aholi tez-tez chet elliklar o‘zboshimchalogiga qarshi chiqishlar qila boshladilar. Mahalliy aholining ilg‘or qismini o‘z ichiga olgan bu milliy-ozodlik qatnashchilarining barchasi “Misr misrliklar uchun” shiori ostida, chet el zulmiga qarshi kurashga rahbarlik qilgan Hizb-ul-vatan (Vatan partiyasi) siyosiy partiyasiga birlashdilar.

1880-yil may oyida harbiy xizmatchilarga qarshi qaratilgan tazyiqlar umumiylorozilik harakatiga turtki bo‘ldi. Shunday sharoitda, Ahmad Arabiy norozilik harakati yetakchisi sifatida Tavfiq poshodan harbiy vazirni iste’foga chiqishini talab qildi. Shundan so‘ng, harbiy ishlar vazirligi qurolli harakat yo‘li bilan egallanib vazirlig joylashgan bino egallanib harbiy ishlar vaziri asirga olindi.

Ahmad Arabiyning bu kabi keskin harakatlari posho va chet ellik vakillarni mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning talablarini bajarishga majbur qildi. Jumladan, qo‘zg‘olonchilarini kuch bilan mamlakat poytaxtidan chiqarib yuborish uchun qilingan urinishlar besamar ketganidan so‘ng posho 1881-yil sentabrda ularning barcha talablarini bajarishga majbur bo‘ldi. Ularning dasturida mavjud hukumatning iste’foga chiqishi lozimligi, konstitutsiya loyihibarining ishlab chiqilishi hamda Misr harbiy qurolli kuchlari sonining oshirilishi o‘z ifodasini topgan edi. Posho mamlakat parlamentiga saylovlari o‘tkazib yangi konstitutsiya loyihasini tayyorlattirdi. Biroq, 1881-yil dekabrda o‘z faoliyatini boshlagan milliy majlisning sessiyasida deputatlar tomonidan konstitutsiya loyihasi tasdiqlanmadidi. Ahmad Arabiy yangi hukumat tuzishni taklif qildi va bu voqealiga 1882-yil fevralda parlament deputatlarining talabi bilan amalga oshirildi. Ahmad Arabiyning o‘zi esa mamlakat harbiy ishlari vaziri mansabibi egalladi. Tabiiyki, ingliz va fransuz hukmron doiralari posho Tavfiqdan ushbu yangi hukumatni iste’foga chiqarishni keskin talab qildi. Bundan tashqari, ular Ahmad Arabiyini Misrdan badarg‘a qilishni poshodan istab murojaat qildilar. Biroq, Qohirada va Aleksandriya shahrida boshlanib ketgan g‘alayonlar poshoning Ahmad Arabiyini mamlakatdan surgun qilinishiga imkon bermadi.

Bu vaqtga kelib, Ahmad Arabiy o‘zining keskin harakatlarini davom ettirgan holda, chet el bosqinchilariga qarshi tashviqot ishlarini o‘z tarafдорлari bilan birga mahalliy aholi orasida faol ravishda targ‘ib qildi. Fikrimiz tasdig‘i o‘laroq, harbiylar tomonidan yevropacha ko‘rinishdag‘i jamoat binolari jumladan, restoranlar, teatrlar faoliyati to‘xtatildi hamda islomiy tartib-qoidalar qayta joriy qilindi. Bu esa o‘z navbatida tobora chet elliklar ta’siriga tushib qolayotgan Usmonlilar sultonı Abdulhamid II tomonidan ma’qullandi. Shundan so‘ng, u Ahmad Arabiyiga posho unvonini taqdim etdi. Yuqoridagi voqealar bilan bir vaqtida, chet ellik mustamlakachilar tomonidan Misr

muammosi hal qilinishiga qaratilgan harakatlar amalga oshirildi. Xususan, Turkiyaning Istanbul shahrida Misr muammosiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya chaqirildi. Ushbu anjumanda Yevropaning buyuk davlatlari qatorida ingliz delegatsiyasi vakillari ham qatnashdi. Biroq, konferensiya natijalariga ko‘ra, Angliya hukumati Misr hududini harbiy kuch bilan bosib olmasli to‘g‘risidagi maxsus qarorni boshqa davlatlar qatorida imzolashga majbur bo‘ldi. Lekin ular ushbu hujjatga amal qilmadilar va Aleksandriya shahri yaqinida harbiy operatsiyalar o‘tkazishga tayyor bo‘lib turgan ingliz eskadrasining boshlig‘i, vitse-admiral Seymour Istanbul konferensiysi maxsus qarorining ratifikatsiyasini kutmasdan Aleksandriya shahri harbiy gubernatoriga o‘zining keskin talabnomasini yubordi. Unga ko‘ra, Misrliklar tomonidan qurilayotgan port qurilishini bir kun ichida to‘xtatish talab qilingan edi. 1882-yilning 11-iyulida ingliz harbiy floti tomonidan Aleksandriya shahrini egallashga qaratilgan harbiy harakatlar boshlab yuborildi. Ko‘p o‘tmasdan piyoda qo‘sishlar tomonidan shahar to‘la egallandi. Boshqa bir mustamlakachi davlat hisoblanmish Fransiya harbiy kuchlaridan qo‘sishlar ushbu jarayonlarda ishtirok etmadı.

Ushbu voqeadan so‘ng, Ahmad Arabiy tomonidan chet ellik mustamlakachilarga nisbatan amalga oshirilayotgan keskin tadbirlar sharoitida Aleksandriya shahri Misr davlati hududidagi barcha yevropalik aholi vakillari uchun so‘nggi boshpanaga aylandi. Bunday vaziyatda, mamlakatning amaldagi hukmdori Tavfiq posho ham Qohirani tark etib Aleksandriya shahriga jo‘nab ketdi. Bu vaqtda esa inglizlarning poytaxtga qarshi bo‘lajak harbiy harakatini oldini olish uchun mudofaa tadbirlari amalga oshirildi. Chunonchi, harbiy kengash mudofaa ishlarini boshqarish uchun tashkil etildi, zodagonlar, ruhoniylar hamda “Hizb-ul-vatan” deputatlaridan iborat favqulodda majlis chaqirildi. Lekin Ahmad Arabiy va Xadiq o‘rtasida kelishmovchilik, o‘zaro nizolar avj oldi. Vaziyatdan foydalangan holda Xadiq Tavfiq Arabiyning hokimiyatdan chetlatilganligi va isyonchi ekanligini e’lon qildi. O‘z navbatida bunga javob tariqasida Ahmad Arabiy poshoni inglizlarning qo‘g‘irchoq xodimi deb e’lon qildi. Favqulodda majlis Tavfiqni Misr hukmdori emasligini e’lon qildi hamda Misr Qurolli Kuchlari Oliy Qo‘mondoni - Arabiyning ixtiyorida 19 mingga muntazam harbiy kuchlar va 40 mingga yaqin ko‘ngillilardan iborat harbiy qismlar mavjud edi.

Bo‘lajak urush oldidan misrliklar barcha mudofaa imkoniyatlariga ega edi. Ahmad Arabiy qo‘l ostida 500 ga yaqin zamonaviy to‘plar harbiy o‘q-dorilarning ulkan zahirasi va boshqa harbiy imkoniyatlar mavjud edi.

Misrni mudofaa qilish uchun maxsus himoya rejasi ham ishlab chiqildi. Lekin, ushbu reja ishlab chiqilishi jarayonida Ahmad Arabiy taktik xatoga yo‘l qo‘ydi, ya’ni, Qohiraga xavf solishi mumkin bo‘lgan Suvaysh kanali qismi mudofaasi kuchaytirilmadi. Bunga sabab sifatida Ahmad Arabiyning inglizlar tomonidan ham imzolangan xalqaro miqyosdagi Suvaysh kanalining neytralititi haqidagi konvensiyaning buzilmasligiga bo‘lgan kuchli ishonchini keltirish mumkin.

Bu omil mudofaachilarning ojiz nuqtasiga aylandi. Aynan shu qismdagagi Port-Said va Ismoiliya hududlariga Hindistondan jalb qilingan harbiy qo'shinlar safarbar etildi. Buning oqibatida Qohira shahri inglizlar tomonidan ikki tomonlama hujumga uchradi. Bu esa mudofaani nihoyatda murakkablashtirdi. Ustiga ustak, hiyonat ro'y berdi. Mudofaaning turli nuqtalariga javobgar bo'lgan badaviylar rahbarlari ingliz qo'shini tomoniga o'tib ketdi. Bularning barchasi Arabiy mag'lubiyatini ta'minladi. 1882-yil 14-sentabrda nihoyat Qohira shahri zabit etildi. Arabiya sir olindi hamda harbiy sud qarori asosida Shri-Lanka oroliga surgun qilindi.

Xulosa o'rnila shuni aytishimiz mumkinki, ushbu davrda chet el intervensiyasiga qarshi tura oladigan, unga faol qarshilik ko'rsatadigan arab xalqining milliy birligi shakllanmagan edi. Ushbu vazifani bajarishi mumkin bo'lgan mahalliy burjuaziya zaif, mamlakat siyosiy hayotidagi roli sezilarli emas edi. Bundan tashqari, ular xalq manfaatidan ko'ra o'z shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yib ko'p holatlarda chet elliklarning sodiq xizmatkorlariga aylandilar va shu orqali mamlakatda o'zlarining mavqelari hamda imtiyozlarini kengaytirishga umid qildilar. Shuningdek, Ahmad Arabiyga o'z sodiqligini izhor qilgan yirik yer egalari va ko'chmanchi qabilalarning rahbarlari eng og'ir vaziyatda Ahmad Arabiyga hiyonat qildilar. Bu omillarning barchasi misr milliy ozodlik harakatining qisqa fursatda mag'lubiyatga uchrashini ta'minlab Misrni Angliyaning to'liq mustamlakasi bo'lish jarayonini tezlashtirdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Marco Pinelli. The unmaking of a patriot: Anti-arab prejudice in the british attitude towards the urabi revolt (1882).2018. 18 p
2. Ozan AŞIK. On Philip Abrams and a Multi-Faceted "Historical Event": The Urabi Movement (1879-1882) in Egypt // Faculty of Arts & Science, Department of Sociology, Bursa-Turkey. 2018. 184 p
3. Mansoor Ahmed Mirza.Ulama in the 'Urabi Revolt and the Emergence of Egyptian. Nationalism London School of Economics for the degree of Doctor of Philosophy, London, October 2014, 293 p
4. Asaad A. Zaki.The Early British Attitude Towards Urabi Revolution (9-14 September 1881).168 p
5. Aimee M. Genell.Empire by Law: Ottoman Sovereignty and the British Occupation of Egypt, 1882-1923.278 p
6. Naklah.Ahmad Urabi: Delegate of the people social mobilization in the Egypt on the Eve of Colonial Rule Sean Lyngaa.2011.13 p